

Maqola: DUNYODAGI ENG KUCHLI 10 ARMIYA

Tayyorladi: JG'MHO STM QKFB sikli o'qituvchisi podpolkovnik A. Sayitkulov

Foydalangan manbaa: «Зарубежное военное обозрение» **jurnali**, RF, 2013-15 yil. Internet sarloxalaridan foydalanildi.

DUNYODAGI ENG KUCHLI 10 ARMIYA

Credit Suisse ma'lumotlariga ko'ra, AQSh armiyasi mablag'lar va hajmning qisqartirilishiga qaramay, dunyodagi yetakchilikni saqlab qolmoqda. U Rossiya va Xitoyni ham ortda qoldirgan.

Harbiy kuch darajasini tahlil qilishda qurolli kuchlar (umumiy balldan 5 foizi), tanklar (10 foiz), jangovar vertolyotlar (15 foiz), samolyotlar (20 foiz), aviatashuvchilar (25 foiz) va suv osti kemalari (25 foiz) soni inobatga olindi. Baholash harbiy kuchni faqatgina son jihatidan taxmin qilish imkonini berdi hamda qurollar va shaxsiy tarkibning haqiqiy holati e'tiborga olinmadi. Shu tariqa, ro'yxatda ba'zi bir davlatlarning bo'lishi biroz kutilmagan holat ham bo'lishi mumkin.

Quyida jahonning eng kuchli o'n armiyasi ro'yxatini taqdim etamiz.

10. TURKIYA



Mudofaa byudjyeti: 18,2 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 410,5 ming kishi

Tanklar: 3778

Samolyotlar: 1020

Suv osti kemalari: 13

Turkiya qurolli kuchlari – sharqiy O'rta yer dengizidagi eng yiriklardan biri. Turkiya aviatashuvchilarning yo'qligiga qaramay, suv osti kemalari soni bo'yicha faqatgina besh davlatdan ortda qoladi. Shuningdek Turkiyada katta miqdordagi tanklar, samolyotlar va jangovor vertolyotlar bor. Mamlakat F-35 qiruvchisini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma dasturda ham ishtirok etmoqda.

9. BUYUK BRITANIYA



Mudofaa byudjyeti: 60,5 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 146,9 ming kishi

Tanklar: 407

Samolyotlar: 936

Suv osti kemalari: 10

Buyuk Britaniya 2010-2018 yillarda qurolli kuchlar sonini 20 foizga qisqartirishni rejalashtirayotgan bo'lsa-da, kuchi butun dunyoda ular bilan hisoblashishlariga qodir. Qirollik floti HMS Queen Elizabeth aviatashuvchisini 2020 yilda o'z tarkibiga olishni maqsad qilgan. Uning uchish palubasining maydoni 18 ming kvadrat metrdan ortiq bo'lib, bortda 40ta F-35B qiruvchilari joylashishi mumkin.

8. ITALIYA



Mudofaa byudjyeti: 34 mlrd dollar
Shaxsiy tarkib soni: 320 ming kishi
Tanklar: 586
Samolyotlar: 760
Suv osti kemalari: 6

Italiya armiyasi ro'yxatda yuqori o'rinlardan birini ikkita faol aviatashuvchining borligi orqali egalladi. Buning ustiga suv osti kemalari va jangovar vertolyotlarning ko'pligi ham Italiya reytingini yanada oshirgan.

7. JANUBIY KOREYA



Mudofaa byudjyeti: 62,3 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 624,4 ming kishi

Tanklar: 2381

Samolyotlar: 1412

Suv osti kemalari: 13

Janubiy Koreya Shimoldan ehtimoliy tahdid tufayli katta va kuchli armiyani saqlashga majbur. Shuning uchun armiyada suv osti kemalari, vertolyotlar bor, shaxsiy tarkib soni esa ancha yuqori. Shuningdek Janubiy Koreya kuchli tanklar guruhi va dunyoda hajmi bo'yicha oltinchi o'rinda turuvchi HHKga ega.

6. FRANSIYA



Mudofaa byudjyeti: 62,3 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 202,7 ming kishi

Tanklar: 423

Samolyotlar: 1264

Suv osti kemalari: 10

Fransiya armiyasi u qadar katta emas, biroq juda yaxshi tayyorgarlik va tezkorlik bilan ajralib turadi. Yaqindagina Charles de Gaulle aviatashuvchisi

qurolli kuchlar tarkibiga kelib qo'shildi, bundan tashqari, Fransiya Afrikadagi ekstremizmga qarshi kurash va mahalliy hukumatlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan harbiy amaliyotlarda qatnashadi.

5. HINDISTON



Mudofaa byudjyeti: 50 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 1,325 mln kishi

Tanklar: 6464

Samolyotlar: 1905

Suv osti kemalari: 15

Hindiston – dunyodagi eng katta harbiy davlatlardan biridir. U shaxsiy tarkib soni bo'yicha faqatgina XXR hamda AQShdan ortda, tanklar va samolyotlar soni bo'yicha esa AQSh, Xitoy va Rossiyadan tashqari barcha davlatlardan oldinda. Mamlakatda shuningdek yadro quroli ham bor. Kutilishicha, 2020 yilga kelib Hindiston mudofaa sohasiga sarf-xarajatlar ko'pligi bo'yicha to'rtinchi o'rinni egallaydi.

4. YAPONIYA



Mudofaa byudjyeti: 41,6 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 247,1 ming kishi

Tanklar: 678

Samolyotlar: 1613

Suv osti kemalari: 16

Umuman olganda yapon armiyasi u qadar katta emas. Biroq undagi qurollar juda ham zamonaviydir. Yaponiya suv osti floti kattaligi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallaydi. Davlatda shuningdek, to'rtta aviatashuvchi ham bor, ular faqatgina vertolyotlar bilan jihozlangan. Yaponiya jangovor vertolyotlar soni bo'yicha faqatgina Xitoy, Rossiya va AQShdan ortda.

3. XITOIY



Mudofaa byudjyeti: 216 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 2,333 mln kishi

Tanklar: 9150

Samolyotlar: 2860

Suv osti kemalari: 67

Xitoy armiyasi so'nggi bir necha o'n yil davomida hajm va imkoniyat bo'yicha juda kattalashdi. U shaxsiy tarkib soni bo'yicha dunyodagi eng yirik armiyadir. Davlat tanklar guruhi bo'yicha (Rossiyadan so'ng) hamda suv osti floti kattaligi bo'yicha ikkinchi (AQShdan keyin) o'rindadir. Xitoy harbiy modernizatsiya dasturida ajoyib muvaffaqiyatga erishdi, ayni damda esa bir qancha noyob harbiy texnologiyalarni ishlab chiqmoqda, ular orasida ballistik raketalar va beshinchi avloddagi samolyotlar bor.

2. ROSSIYA



Mudofaa byudjyeti: 84,5 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 766 ming kishi

Tanklar: 15 398

Samolyotlar: 3429

Suv osti kemalari: 55

Rossiya qurolli kuchlari dunyo bo'ylab ikkinchi o'rinni egallaydi. Mamlakat jahondagi eng katta tanklar guruhiga ega bo'lib, harbiy-havo kuchlari kattaligi bo'yicha ikkinchi (AQShdan so'ng) va suv osti floti hajmi bo'yicha uchinchi (AQSh va Xitoydan keyin) o'rindadir. 2008 yildan beri Kreml harbiy xarajatlari qariyb uchdan birga ko'paydi. Mamlakat Suriyada harbiy guruh joylashtirib, o'zining tezkorligini yanada yaqqol namoyish etdi.

1. AQSH



Mudofaa byudjyeti: 601 mlrd dollar

Shaxsiy tarkib soni: 1,4 mln kishi

Tanklar: 8848

Samolyotlar: 13 892

Suv osti kemalari: 72

AQSh byudjyetedagi xarajatlarni kamaytirish harakatlariga qaramay, mudofaaga Credit Suisse indeksidagi boshqa to'qqiz mamlakatdan ko'proq mablag' sarflaydi. Amerika asosan 10ta aviatashuvchining borligi bilan ustun turadi. Taqqoslash uchun, ikkinchi o'rinni Hindiston egallaydi – mamlakat o'zining uchinchi aviatashuvchisini yaratish ustida ishlamoqda. Shuningdek AQShda boshqa davlatlarga qaraganda ko'proq samolyotlar, harbiy dengiz flotidagi yangi tezkor zambarak kabi ilg'or texnologiyalar bor. Yadro quroli haqida esa gapirmasa ham bo'ladi.

NATIONAL INTEREST DUNYONING 5 TA ENG KUCHLI ARMIYASINI ANIQLADI

DUNYO



Amerikaning National Interest jurnali dunyoning dengiz, havo va quruqlikdagi eng kuchli armiyalari reytingini tuzib chiqdi. Ularning har birida Rossiya, AQSh va Xitoy o‘rin egallagan.

Shunday qilib, nashr tasnifiga ko‘ra, dunyoda eng kuchli harbiy-dengiz flotiga ega mamlakatlar — AQSh, XXR, Rossiya, Buyuk Britaniya va Yaponiyadir.

Aslida, Rossiya quruqlikdagi armiya bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Biroq, uning harbiy-dengiz floti tarkibidagi kemalari soni yetarlicha. "Rossiya HDK ixtiyorida 79 ta katta kema, jumladan bitta avianosets, beshta kreyser, 13 ta esminets va 52 ta suv osti kemasi mavjud", — deyiladi hujjatda.

Maqola mualliflarining qayd etishicha, suv osti kemalari Rossiya harbiy flotining asosiy kuchidir. Uning tarkibidagi suv osti kemalarining 15 tasi atom kemalaridir. 16 ta ko‘pmaqsadli, raketa-torpedo qurollariga ega suv osti kemasi mavjud. 9 tasiga ballistik raketa, oltitasiga qanotli raketalar joylangan.

Boshqa mamlakatlar borasida to‘xtalgan NI Amerika aviatashuvchi kemalarini alohida e‘tirof etgan. AQShda 10 ta shu rusumdagi kema bor. Bundan tashqari, Xitoy harbiy floti tarkibida ham suv osti kemalari ko‘p.

NI nashriga ko'ra, AQSh, XXR, Hindiston, Rossiya va Buyuk Britaniya quruqlikdagi eng kuchli armiyalarga ega.

Rossiya quruqlikdagi qo'shinlari soni 285 ming nafar jangovar tarkibdan iborat, NI fikricha, 535 ming harbiy xizmatchidan iborat AQSh qo'shini eng kuchlisidir. Xitoy xalq ozodlik armiyasi o'z navbatida 1,6 millionlik piyoda qo'shinlari bilan faxrlansa arziydi. Britaniyada bu ko'rsatkich 102 ming askardan iborat.

So'nggi, uchinchi reytingga ko'ra, yer yuzidagi eng kuchli harbiy havo kuchlari atigi to'rtta mamlakatda mavjud. Bular — AQSh, Rossiya, XXR va Yaponiya.

Rossiya ixtiyorida 1500 jangovar samolyot va 400 ta shunday vertolyot bor. NI jurnalining yozishicha, Qo'shma Shtatlar HHK tarkibida 5,6 ming samolyot bo'lsa, HDK ixtiyorida 3,7 ming samolyot mavjud.

7/06/2017 yil.